





Xebeyda Surxondaryoning investitsion salohiyati namoyish etildi



Surxondaryo viloyati delegatsiyasining Xitoyga tashrifi Xebey provinsiyasida davom etdi. Delegatsiyamiz dastlab, Shiszyachjuan shahrida ikki tomon rasmiylari hamda 200 ga yaqin ishbilarmon doira vakillari ishtirokida tashkil etilgan biznes forumda qatnashdi.



Forumda ikki tomon rasmiylari, yirik kompaniyalar vakillari soʻzga chiqib, hududlarning savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy madaniy salohiyati toʻgʻrisida taqdimot qildi. Xususan, viloyatimiz rahbari Ulugʻbek Qosimov oʻz soʻzida vohamizning mavjud imkoniyatlari bilan tanishtirib, Xitoy kompaniyalari bilan istiqbolli loyihalarni amalga oshirishda hamkorlik qilishga tayyor ekanligini taʼkidladi.



Shuningdek, forum doirasida Surxondaryo va Xebey tadbirkorlari, ishbilarmon doira vakillari oʻrtasida tor doiradagi muzokaralar, turli loyihalar yuzasidan muhokama

o'tkazildi. Yakunda tomonlar uchun manfaatli va istiqbolli kelishuvlarga erishildi.

